

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМЛИ  
УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“БАРКАМОЛ АВЛОД ШАКЛЛАНИШИДА  
МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ  
ТУТГАН ЎРНИ”  
МАВЗУИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
СЕМИНАРИ**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**



**ТОШКЕНТ-2016**



sovrinli o'yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko'pkari-uloq, kurash, turli hayvon va parrandalar «jang» lari, xo'roz, it, qo'chqor urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, dor o'yinlari, xalq tomoshalari o'tkazilgan. Qo'shni Tojikistonning G'onchi tumanida har yili Navro'z mahali kelinchaklar sayli o'tkazish qadim-qadimdan odat tusiga kirgan. Bu sayilga oq xarir pardalar tutgan, kuyovga tushganiga bi yildan oshmagan kelinchaklar qatnashishadi. Ular pastlikda, xuddi oq gullar to'lqinidek ketaverishadi. Qo'llarida o'zlari mehr qo'yib tikkan matolari, so'zanalari, belbog'lari bo'ladi. Ikki tomonda qiyaliklarda turgan tomoshabinlar o'tayotgan kelinchaklarning birortasini ham ko'zdan qochirishmaydi. Kelinchaklarning orzu-armonlari, o'y-hayollari bitilgan matolarning qaysi biri ko'proq olqsh olsa, o'sha g'olib, maqtovg'a sazovor bo'ladi. Bu benihoya chiroyli, go'zal sayldir. Bu xil sayillarni o'rganib, ommalashtirish zarur.

Navro'z bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan biri-keksalarga hurmat, ularning holaridan xabar olish, ko'mak berishdir. Navro'z tiriklik bayrami sifatida mashhur bo'lib, uning tag'in bir muhim xosiyati: bu kunlar marhumlar yodiga juda katta ahamiyat berilgan. Machitu madrasa, xonadonu mahalla, mozoru ziyoratgohlarda qur'on o'qitilib, jonliklar so'yilgan. Yetim-yesir, bola-baqralar uchun katta doshqazonlar osilib, qurbonlik taomlari pishirilgan. Har bir oila o'z xilxonalarini, ortishsa, boshqalarnikini ham tozalab, orasta qilishgan. Qabrlarning shikastlangan joylarini ta'mir qilishgan. Mevali daraxtu gul-chechaklar o'tkazishgan. Buxoro amirligi ma'rifatparvarlaridan biri Salimbek Nurota muzofatiga bek tayinlangach, Navro'z kunlari ulug' ziyoratgoh Nuri Ota maqbaralarini ta'mirlash jarayonida qabrning o'yilib qolgan joylariga ko'zi tushib, xilxonani ochib, qayta yopish fatvosini olgan. Qur'on tushirtirib qabrni ocharkan, xuddi tirik insonday mangu uyquda yotgan avliyo jasadlariga nigohi tushgan. Nuri Ota xuddi ming yil avvalgidek, oppoq soqollari ko'ksilariga tushib, yuzlari to'la nur bilan yotgan ekanlar. Shu zahoti jasadning unniqib, qoraya boshlaganini sezgan Salimbek me'mor-ustalarga ta'mirni shoshilinch tugatib, qabrni yopish topshirig'ini bergan.

Navruz bayramining eng ahamiyatli jihatlaridan biri uning ota-bobolarmizdan kelayotgan qadriyatlarimizni yoshlarimizga bus-butun yetkazib berishidir.

## **TARIXIY MEROSIMIZNING BUGUNGI KUNDAGI QADRI**

**N.A.Klicheva - TATU Urganch filiali o'qituvchisi**  
**S.O.Marimbayeva - TATU Urganch filiali talabasi**  
**Y.O.Sultonov - TATU Urganch filiali talabasi**

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.

Madaniy va tarixiy merosni asrash, o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish, barkamol shaxsni tarbiyalashda uning ma'naviyatini yuksaltirish va kelajakda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish, BMTning umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi kabi huquqiy hujjatlarni amaliyotga izchil tadbiq etish hayotiy zaruratdir.



Tarixiy obidalar bizning ota bobolarimiz tomonidan yaratilgan me'moriy yodgorliklarimizdir. Ularni avaylab asrashimiz, bizdan keyingi yosh avlod uchun yanada boyatilgan holda yetkazib berishimiz zarur. Avvalambor inson mehnatini qadrlamoq lozim. Me'moriy yodgorliklarning umri shunchalik uzunligi ko'pchilikni e'tiborini tortadi. Lekin ba'zi tarixiy obidalarimiz O'zbekistonda emas boshqa davlatlar muzeylarida saqlanmoqda.

Me'moriy yodgorliklarimiz hozirgi kunda ham saqlanib qolgan va yana rivojlanishi uchun e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mustaqilligimizdan so'ng yurtimiz "UNESCO" hamkorligida bir qancha me'moriy yodgorliklarni qayta rekonstruksiya qilishga erishildi.

Buyuk siymolarimizni ilm-fanni rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham kattadir. Afsuski, ularning ko'pchiligi chet-el muzeylarida saqlanmoqda, ammo o'sha kitoblar, o'sha kashfiyotlar bizning ota-bobolarimiz qilgan ishlari haqida ma'lumotlar juda ham kam.

Ma'naviy va madaniy yodgorliklarimizga ko'pgina xalqlar havas qiladi. Milliy dizayndagi liboslarimiz ko'pgina konkurslarda yuqori baholanib kelmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida o'zligimizni anglash, xalqimizning boy ma'naviy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish yo'lida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, buyuk allomalarimiz qoldirgan betakror ilmiy merosni chuqur o'rganish, tadqiq va targ'ib qilish borasidagi ishlar ko'lami kengayib borayapti.

Davlatimiz rahbarining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ta'kidlanganidek, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omil hisoblanadi. Bizning xalqimiz ham ana shunday bebaho xazinaga ega.

Yoshlar tarixiy boyliklarimizni yaxshi o'rganishlari, ularni avaylab asrashlari uchun ularning qiziqishlaridan kelib chiqib bir nazar solaylik.

Biz shunday yo'l tutaylik milliylik ham ulug'lansin, zamon talabiga ham mos kelsin. Zamonga hamnafas bo'lib ko'pgina biz qayta tiklashga urinayotgan qadriyatlarimizdan uzoqlashib bormayabmizmi, shunday go'zal ma'daniyatimizga e'tibor kamaymayapdimi?

Kelajakka nazar soladigan bo'lsak, kelajak yosh avlod bugungi kunda nimalar bilan qiziqishyapti, qanday manbalardan foydalanishyapti bular bilan bir qiziqib ko'raylik. Zamon talabi shuki yoshlarimiz o'ziga kerak bo'lgan ma'lumotlarni internetdan osongina topishyapti.

Hozirda turizmni rivojlantirish maqsadida milliy meroslarimizni aks ettiruvchi web-saytlar ham mavjud. Bularga misol qilib, "Obidalar.uz", "Khorezmland.narod.ru" ("Чудо Хорезма") kabi web-saytlarni aytsak bo'ladi. Ammo, bu web-saytlarda dizayn kamchiliklari yetarlicha. Bundan tashqari ma'lumotlar tez-tez yangilanmaydi, ba'zi saytlar umuman ishlatilmasdan qolib ketmoqda. Internetda YouTube yoki boshqa kanallardan tarixiy meroslarimiz haqida yaxshi videofilmlar topish ham murakkab ish. Shu bilan birgalikda milliy meroslarimiz haqida ko'plab ma'lumotlarni faqat rus tilida topish mumkin. Internet tarmog'i orqali milliyligimizni



saqlovchi va ifoda qiluvchi, tarixiy meroslarimiz haqida ma'lumot beruvchi ma'lumotlarni ko'paytirilsa, nafaqat turizm sohasi uchun, balki yurtimiz yosh avlodlari ongiga milliylikni singdiruvchi, ularga chet-el mentalitetini yoki chet-el madaniyatini emas, balki o'z tarixi va madaniyatini anglash, o'zligini anglash uchun eng yaxshi vosita bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "Tarixsiz kelajak yo'q". Shunday ekan, yurtimiz yoshlari, ya'ni kelajagi milliy-tarixiy meroslarimiz, qadriyat va an'alarimiz va madaniyatimizni yaxshi anglamog'i, buyuk yurt farzandlari ekanligini bilmog'i lozim.

## AJDODLAR MEROSI – MA'RIFAT ZIYOSI

N.Matkarimova – URDU "Kimyo" kafedrası o'qituvchisi

*"Eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat - bu ma'naviy jasorat desak yanglishmagan bo'lamiz."*

I.A.Karimov

Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Qadimiy tabarruk zaminimizda ko'plab buyuk allomalar, olimu ulamolar, siyosatchilar sarkardalar yetishib chiqqan. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros, yosh avlodni har tomonlama yetuk ma'naviyati boy inson bo'lib, kamol topishida muhim o'rin tutadi. Bizning vatanimiz poydevori ana shunday ajdodlarimiz merosi bilan mustahkamdir. Ulug' bobokalonimiz buyuk davlat arbobi Zahridin Muhammad Bobur "Hind sori yuzlanib" o'zining keng dunyoqarashi va aql – zakovati bilan Hindistonda buyuk saltanatga asos soldi. Ulug' bobokalonimiz bizga boy ilmiy adabiy meros qoldirib ketgan bo'lib, unda markazlashgan davlatni boshqarish, mamlakat madaniy hayotini yuksaltirish, adolatli jamiyat qurish, ijtimoiy birdamlik ta'lim tarbiyaga oid umuminsoniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bunday ajdodlarimiz bizga qoldirgan buyuk ma'naviy meros yosh avlobni har tomonlama ma'rifatli bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Sohibqiron Amir Temur shoh va buyuk alloma Mirzo Ulug'bek, shoh va shoir Mirzo Bobur kabi buyuk siymolar o'z faoliyatlari, ilmiy ijodiy izlanishlari bilan bashariyatga katta madaniy meros qoldirgan. Ayniqsa, Amir Temurning davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi faoliyati "Temur tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning ilm fan olamida mashhur "Ziji Ko'ragoniy" asari, Samarqand rasadxonasi va Ulug'bek akademiyasi, Mirzo Boburning "Boburnoma" asari umuman, Temur va Temuriylar davrida qurilgan ko'plab tarixiy obidalar yuqoridagi fikrimiz tasdig'i bo'la oladi.

Bugun ulug' bobolar ishini davom ettirayotgan Yurtboshimizning say harakatlari bilan ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, aholini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz va dori –darmonlar bilan ta'minlash, yurt obodligini yuksaltirish sohasida qilinayotgan ishlar diqqatga sozovordir.

Azaldan – azal ajdodlar merosi milliy madaniyatimizning ajralmas bo'lagi hisoblanib, ular orqali bu an'alarimiz rivojlanib kelmoqda.



## МУНДАРИЖА

Кириш.....	3
<b>I-шўба. Аждодлар мероси – маърифат зиёси</b>	
С.Р.Давлетов. Глобаллашув шароитида ёшлар маънавиятини шакллантиришда миллий-маънавий қадриятларнинг тутган ўрни.....	4
У.Досчанова, Н.Рўзметова, Г.Қобулова, У.Каримов. Хусайн Воиз Кошифий муқаммал жамият барпо этиш ва комил инсонни шакллантириш тўғрисидаги қарашлари.....	7
М.Жуманиёзова, Г.Халилйева. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ertaklarning o'rni.....	9
М.Джуманиёзова, Д.Сафайева. Sharq mutafakkirlari asarlarida bola mehnat tarbiyasi shakllantirish masalalari.....	12
А.Машарипов, Ш.Жуманиёзова, С.Машарипова, С.Йўлдошева, Л.Худоёрова. Маъмун академияси-замонавий илм-фан ва тараққиёт пойдевори, маънавий қадриятларимиз ўчоғи.....	14
Д.Бекчанов, Абилова, Ш.Рахимова, К.Тожимуратова. Амир Темур ўғитлари маънавият тарбияси хизматида.....	16
У.Досчанова, Д.Худойберганова, Д.Кенжаева. Жалолиддин Давоний қарашларида давлатни одилонга бошқариш ва баркамол авлод тарбияси масалалари.....	19
У.Р.Тоғиева. Имом Бухорийнинг маънавий-ахлоқий ғоялари.....	21
О.И.Аскарров. Авестонинг таркибий қисмлари ва унинг мазмун моҳияти.....	23
З.Каримов, Д.О'разбоев, В.Бобоев. Milliy bayramimiz navro'zning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni.....	25
Н.А.Клишева, С.О.Маримбайева, У.О.Султонov. Tarixiy merosimizning bugungi kundagi qadri.....	27
Н.Маткаримова. Ajdodlar merosi – ma'rifat ziyosi.....	29
О.И.Аскарров. Шарқ мутафаккирлари асарларида ижтимоий–сиёсий, диний таълимотларнинг маънавий аҳамияти.....	31
Д.Бекчанов. Turkistonda jadidchilik xarakatining vujudga kelishi va jadidlar xarakatida milliy ziyoliylarning o'rni.....	33
Қ.П.Қабулов, М.С.Абдуллаев, Р.Ражабов, О.Қодиров. Мустиқиллик: миллий ва умуминсоний қадриятлар.....	34
Sh.X.Norbayeva, M.Q.Bekmetova. Ogahiy she'riyatidagi qurilish bilan bog'liq forsizmlar.....	37
О.И.Аскарров. "Авесто"да қадимий деҳқончилик аънаналари ва урф-одатлари.....	40
Д.Бекчанов. Sharq mutafakkirlarining muloqot madaniyatini shakllantirishga oid g'oyalari.....	42
О.С.Пирматова, Ж.Сапарбоев. Аждодларимиз меросида баркамол ғоялар талқини.....	44
R.S.Razzaqova, Z.Q.Ro'zmatova. Ajdodlar merosi-oilada axloqiy qadriyat sifatida.....	47